XALQ DEPUTATLARI XATIRCHI TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 29 - dekabr VI-80-136-5-77-K/23 Xatirchi tuman hokimligi

Xatirchi tumanining 2024-yilgi mahalliy budjeti parametrlarini tasdiqlash to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-, 24-moddalari, Budjet kodeksining 99-moddasi, “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga hamda viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining tegishli xatini inobatga olib, Xalq deputatlari Xatirchi tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Tumani mahalliy budjetining 2024-yil uchun budjet daromadlari 77 228,7 mln.so‘m, xarajatlari 244 570,3 mln.so‘m etib belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2024-yil uchun tumanni rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi mo‘ljallari 1-ilovaga muvofiq, 2024-yil uchun tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi 2-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Quyidagilar:

2024-yil uchun Tuman mahalliy budjetidan budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiq;

2024-yil uchun tuman mahalliy budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratmalar normativlari bo‘yicha viloyat mahalliy budjeti bilan tuman va shaharlar mahalliy budjetlarining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda viloyat

bo‘yicha G‘aznachilik boshqarmasi xizmati tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

4. 2024-yil uchun tuman mahalliy budjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi 5-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

5. 2024-yil uchun viloyat budjetidan tuman mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman mahalliy budjeti daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi qonunda belgilab qo‘yilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

6. 2024-yil uchun tuman mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 2 211,6 mln.so‘m miqdorida belgilansin.

Tumani mahalliy budjetining 2024-yil uchun zaxira jamg‘armasi tasdiqlangan umumiy xarajatlarning kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

Belgilab qo‘yilsinki, tuman mahalliy budjetini ijro etishda yuqori turuvchi budjetdan ularga ajratiladigan budjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli byudjetlarning zaxira jamg‘armalar miqdorlariga aniqlashtirish kiritilmaydi.

2024-yil uchun tuman mahalliy budjeti shaxsiy g‘azna hisob varag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 7-ilovaga muvofiq belgilansin.

7. Qonun bilan 2024-yilda Xalq deputatlari Kengashini mahalliy budjetni boshqarishda, xususan mahalliy budjet xarajatlarini budjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

2024-yilda quyidagi soliq turlari:

a) tuman budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan, shuningdek

yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq.

8. Qonunga muvofiq viloyat mahalliy budjetiga ajratma qilingan 75 foiz miqdordagi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tushumlar (jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishdan olinadigan yillik daromadlari bo‘yicha deklaratsiyaga asosan to‘lanadigan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘idan tashqari) tuman budjeti o‘rtasida taqsimlash hamda yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan solig‘idan tushumlar tumanga 100 foiz, shuningdek yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i tumanga 100 foiz budjetga taqsimlansin.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish ko‘lamini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 25-oktabrdagi PQ-409-son Qaroriga asosan 2024-moliya yilidan boshlab;

a) “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida moliyalashtiriladigan tadbirlar jamoatchilik fikri asosida “Ochiq budjet” axborot portali orqali ovoz berish yo‘li bilan aniqlanishi, bunda, aholi tomonidan amalga oshirilishi taklif etilayotgan tadbirlar har bir mahalla bo‘yicha bitta loyihalar paketi shaklida ovozga qo‘yilishi;

b) Tumani mahalliy budjetida shakllangan qo‘shimcha mablag‘larning 30 foizi jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasiga mavjud aholi soni va mahallalar sonidan kelib chiqib, teng ulushlarda yo‘naltirilishi;

v) tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari uchun tuman budjetining 5 foizi miqdorida, biroq kamida 6 mlrd. so‘m mablag‘ rejalashtirish belgilanganligi;

g) “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini jamoatchilik fikri asosida tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari orqali amalga oshirilishining yangi tartibi ishlab chiqilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

10. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (I.Muxammadiyev), Iqtisodiyot va moliya bo‘limi rahbari (J.Qahhorov), tuman Davlat soliq inspeksiyasi

(A.Ruzimurodov) mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjetining prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

mahalliy budjetga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qarasin.

11. Tuman Davlat soliq inspeksiyasi (A.Ruzimurodov)ga:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirilishini;

er solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo’l qo‘ymaslik choralari ko‘rilishini;

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasi oshirilishini;

Kadastr agentligi tuman bo‘limi (A.Shodiev) bilan birgalikda tumanda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarning to‘liq hisoblanishini;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazilishini ta’minlash topshirilsin.

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda

video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsin.

12. Tuman Davlat soliq inspeksiyasi (A.Ruzimurodov) tuman hokimligi bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karyerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karyerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karyerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

13. Majburiy ijro byurosi tumani bo‘limi (Z.Rizaev), tuman Davlat soliq inspeksiyasi (A.Ruzimurodov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlarni ko‘rib borsin.

14. Tuman hokimligi va tegishli tashkilotlar jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

15. Tuman Davlat soliq inspeksiyasi (A.Ruzimurodov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (J.Qahhorov) davlat korxonalari hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq davlat ulushi mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar tomonidan 2024-yilning 1-iyuliga qadar 2023-yil yakunlari bo‘yicha o‘z sof foydasining 50 foizidan kam bo‘lmagan miqdoridagi ajratmalar va davlat ulushi bo‘yicha dividendlarni 2024-yilning 1-sentyabridan kechiktirmay tegishli darajadagi byudjetga o‘tkazilishini ta’minlasin.

16. Tuman hokimligi (A.Turaqulov) va tuman Davlat soliq inspeksiyasi

(A.Ruzimurodov) tashqi reklama ob’yektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama ob’yektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni budjetga to‘lanishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

17. Tuman Davlat soliq inspeksiyasi (A.Ruzimurodov) tuman hokimligi bilan birgalikda tumanda sug‘orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo‘yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste’mol hajmlari bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlarni to‘liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budjetga to‘liq undirib olish bo‘yicha tizimli ishlarni olib borilishini ta’minlasin.

Bunda, qishoq xo‘jaligi korxonalari tomonidan iste’mol qilinayotgan suv resuslari hajmlari va ushbu hajmlar bo‘yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazishga alohida e’tibor qaratilsin.

18. Xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga, natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga, monitoring qilishga;

mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

19. Tuman hokimligi:

tuman mahalliy budjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larning kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin, bunda, Xalq deputatlari tuman Kengashi, Yoshlar ishlar bo‘limi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi hamda joriy etilgan hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini

ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan obyektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10-sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borsin.

20. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (I.Muxammadiyev), Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati (U.Odilov), tuman hokimligi, tegishli tashkilot va muassasa boshliqlari:

mahalliy byudjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

21. Tuman hokimligi qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

22. Mazkur qaror “Xatirchi hayoti” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

23. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

24. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (I.Muxammadiyev) va Xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (X.Mamedov) zimmasiga yuklatilsin.

Sessiyada raislik qiluvchi **I.Mustafoyev**

Xalq deputatlari Xatirchi tuman Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-80-136-5-77-K/23-son qaroriga
1-ilova

Xatirchi tumanini 2024-yilga rivojlantirishning makroiqtisodiy prognoz ko‘rsatkichlari

№	Ko‘rsatkichlar	2024-yil uchun prognoz	Mo‘ljal	
			2025-yil	2026-yil
1.	Yalpi hududiy mahsulot, mlrd.so‘m	x	x	x
2.	Yalpi hududiy mahsulotning o‘sish sur’ati, foizda	x	x	x
3	Sanoat maxsulotning o‘sish sura’ti, foizda	5,3	5,8	6,4
4.	Qishloq, O‘rmon va baliq xo‘jaliklarida ishlab chiqarishning o‘sish sura’ti, foizda	7,4	8,1	8,9
5.	Xizmatlar ko‘rsatishning o‘sish sur’ati, foizda	6,2	6,8	7,5

Xalq deputatlari Xatirchi tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-80-136-5-77-K/23-son qaroriga
2-ilova

Xatirchi tumani mahalliy budjeti daromadlarining
2024-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T/R	Daromad turlari	Jami	JAMI	77 228 700,0
1	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	23 039 700,0		
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (ITD)	935 000,0		
3	Aksiz solig‘i, jami	36 228 039,0		
	Shu jumladan;			
	Alkogolga aksiz solig‘i (shu jumladan pivo)	*15 703 676,0*		
	Tamaki	*14 198 892,0*		
	Mobil aloqaga aksiz solig‘i	*6 325 471,0*		
4	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3 290 000,0		
5	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	8 495 000,0		
6	Yuridik shaxslar yer solig‘i	12 107 000,0		
7	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	14 544 000,0		
8	Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari)	10 000 000,0		
9	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	4 818 000,0		

Xalq deputatlari Xatirchi tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-80-136-5-77-K/23-son qaroriga
3-ilova

2024-yil uchun Xatirchi tuman mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	miqdori
	Xarajatlar miqdori, Jami	**244 570 349,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**244 570 349,0**
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
	Tuman va shaxar mahalliy budjetlariga transfertlar	
1	**Umumiy ta’lim**	**11 793 968,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	11 793 968,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
2	**Maktabgacha ta’lim**	**7 782 946,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	7 782 946,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
3	**Sog‘liqni saqlash**	**120 277 744,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	120 277 744,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
4	**Madaniyat bo‘limi**	**7 240 074,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 831 557,0
	Musiqa va san’at maktablari	4 408 517,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
5	**Sport bo‘limi**	**8 791 408,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	8 791 408,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
6	**Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»**	**21 000,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	21 000,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
7	**Ijtimoiy ko‘nikma markazlari**	**59 384,0**
	shu jumladan:	

	joriy xarajatlar	59 384,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
8	**Obodonlashtirish boshqarmasi**	**22 249 760,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	18 249 760,0
	Ichki xo‘jalik avtomobil yo‘llarini ta’mirlash xarajatlariga	4 000 000,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
9	**Irrigatsiya bo‘limi**	**3 819 636,0**
	shu jumladan:	
		3 819 636,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
10	**Fermer xo‘jaliklarida buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritish markazlarining saqlash xarajatlari**	**508 909,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	508 909,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
11	**Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi**	**3 910 105,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 910 105,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
12	**"Mahalla budjeti" jamg‘armasi mablag‘lari**	**1 927 200,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 927 200,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
13	**Davlat boshqaruv organlarini saqlash**	**16 044 269,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	16 044 269,0
	Tuman xokimligi xarajatlariga	3 002 177,0
	Xalq qabulxonasi xarajatlariga	118 005,0
	Xokim yordamchilari xarajatlariga	7 564 770,0
	Kengash xarajatlariga	242 263,0
	Xotin qizlar bo‘limi xarajatlariga	5 117 054,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
14	**Iqtisodiyot va moliya bo‘limi**	**2 043 700,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 043 700,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
15	**Soliq inspeksiyasi bo‘limi**	**5 609 929,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	5 609 929,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	

16	**Yoshlar ishlari agentligi bo‘limi**	**6 926 605,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	6 926 605,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
17	**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi**	**2 155 022,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 155 022,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
18	**Zahira jamg‘armasi**	**2 211 617,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 211 617,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
19	**Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi**	**21 197 073,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	21 197 073,0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	

Xalq deputatlari Xatirchi tuman Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-80-136-5-77-K/23-son qaroriga
4-ilova

Umumdavlat soliqlaridan Xatirchi tumani mahalliy budjetiga ajratmalar me’yori

Foiz hisobida

T/R	Shaxar va tumanlar nomi	Yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Noruda qurilish materiallari uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq
1	Xatirchi tumani	100	100	30	100	100

Xalq deputatlari Xatirchi tuman Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-80-136-5-77-K/23-son qaroriga
5-ilova

2024-yil uchun Xatirchi tumanining budjet daromadi va xarajati prognozi

Ming so‘mda

Hudud nomi	Daromad	Xarajat
Xatirchi tumani	77 228 700,0	244 570 349,0

Xalq deputatlari Xatirchi tuman Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-80-136-5-77-K/23-son qaroriga
6-ilova

Viloyat budjetidan Xatirchi tuman mahalliy budjetiga 2024-yilda ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfert miqdori

Ming so‘mda

Shahar va tumanlar	**Tartibga soluvchi transfert miqdori**
Xatirchi tumani	167 341 649,0

Xalq deputatlari Xatirchi tuman Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-80-136-5-77-K/23-son qaroriga
7-ilova

Xatirchi tuman mahalliy budjetining 2024-yilda shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘ining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori

Ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Miqdori
1	Xatirchi tumani	641 822,0